

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

Viloyatda bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3 023,1 mln AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 130,7 mln AQSH dollariga, yoki 4,5 % ga ko‘paydi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-dekabr, mln AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024-y. **3 023,1** +4,5 %
(2023-y. **2 892,4**)



Saldo

2024-y. – **1 278,0**
(2023-y. – **1 358,7**)



Eksport

2024-y. **872,6** +13,8 %
(2023-y. **766,8**)



Tovarlar: **799,9**



Xizmatlar: **72,7**



Import

2024-y. **2 150,5** +1,2 %
(2023-y. **2 125,6**)




Tovarlar: **2 145,4**



Xizmatlar: **5,1**

**SAMARQAND VILOYATINING YEUIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI**

(yanvar-dekabr, mln AQSH dollari, ulushi, % da)




Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 1 067,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 410,0 mln AQSH dollari, import hajmi esa 657,0 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YeOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

**SAMARQAND VILOYATINING SHAHAR VA TUMANLAR
KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2024-yil yanvar-dekabr)***

	Hajm mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Samarqand viloyati	3 023,1	104,5	100,0
Samarqand shahri	1 649,6	102,6	54,6
Kattaqo'rg'on shahri	63,9	126,6	2,1
tumanlar:			
Oqdaryo	54,8	120,0	1,8
Bulung'ur	43,2	169,5	1,4
Jomboy	282,5	113,7	9,3
Ishtixon	28,0	122,8	0,9
Kattaqo'rg'on	36,8	23,5	1,2
Qo'shrabot	21,7	3,0 m.	0,7
Narpay	39,9	92,8	1,3
Payariq	19,4	100,9	0,6
Pastdarg'om	65,4	94,6	2,2
Paxtachi	18,5	136,5	0,6
Samarqand	264,2	127,5	8,7
Nurobod	25,8	90,4	0,9
Urgut	247,0	121,1	8,2
Toyloq	129,4	90,4	4,3

Eng yuqori hajm,
mln AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln AQSH dollari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulush Samarqand shahri (56,4 % yoki 1 649,6 mln AQSH dollar), eng quyi ulush esa Paxtachi tumani (0,6 % yoki 18,5 mln AQSH dollar) hissasiga to'g'ri keldi.



SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan 872,6 mln AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 113,8 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.

XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-dekabr, ulushi % da)




Samarqand viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR
KESIMIDA EKSPORTI**
(2024-yil yanvar-dekabr)*

	Hajm mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Samarqand viloyati	872,6	113,8	100,0
Samarqand shahri	321,2	90,2	36,8
Kattaqo'rg'on shahri	44,5	132,1	5,1
tumanlar:			
Oqdaryo	29,6	128,2	3,4
Bulung'ur	18,0	109,1	2,1
Jomboy	94,5	96,4	10,8
Ishtixon	21,1	123,1	2,4
Kattaqo'rg'on	12,8	154,1	1,5
Qo'shrabot	3,5	122,5	0,4
Narpay	22,6	105,6	2,6
Payariq	13,9	113,2	1,6
Pastdarg'om	12,1	75,8	1,4
Paxtachi	13,5	142,6	1,6
Samarqand	140,5	185,9	16,1
Nurobod	1,7	44,9	0,2
Urgut	68,4	132,2	7,8
Toyloq	21,8	108,4	2,5

Eng yuqori hajm,
mln AQSH dollari

Eng quyi hajm,
mln AQSH dollari




Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 36,8 % ulush bilan 321,2 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Nurobod tumani 0,2 % ulush bilan 1,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi.




SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 2 150,5 mln AQSH dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (30,1 %), kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (26,0 %) hamda sanoat tovarlari (25,1 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 30,9 mln AQSH dollariga ko‘paydi va 2 145,4 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar 5,2 mln AQSH dollariga yetdi.


**SAMARQAND VILOYATINING TUMANLAR
KESIMIDA IMPORTI**
(2024-yil yanvar-dekabr)

	Hajm mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Samarqand viloyati	2 150,6	101,2	100,0
Samarqand shahri	1 328,4	106,2	61,8
Kattaqo'rg'on shahri	19,4	115,5	0,9
tumanlar:			
Oqdaryo	25,3	111,7	1,2
Bulung'ur	25,2	2,8 m.	1,2
Jomboy	188,0	125,0	8,7
Ishtixon	6,8	121,8	0,3
Kattaqo'rg'on	24,0	16,2	1,1
Qo'shrabot	18,3	4,2 m.	0,9
Narpay	17,3	80,1	0,8
Payariq	5,5	79,2	0,3
Pastdarg'om	53,3	100,2	2,5
Paxtachi	4,9	122,3	0,2
Samarqand	123,7	94,0	5,8
Nurobod	24,1	97,5	1,1
Urgut	178,7	117,3	8,3
Toyloq	107,5	87,4	5,0

Eng yuqori hajm,
mln AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 61,8 % ulush bilan 1 328,4 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Paxtachi tumani 0,2 % ulush bilan 4,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi.